



HUKUMAT VA IQTISODIY SIYOSIY SIKLNING O‘RNI

Usmonov Murodbek Dusmurot o‘g‘Li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası assistent-stajyori

e-mail: usmonov.murodbek95@gmail.com

Tel: +998 937220855

Tongotarov Elbek

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hukumat siyosati va iqtisodiy siklning o‘zaro ta’siri hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni o‘rganilgan. Tadqiqotda klassik, keynscha, monetarist va zamonaviy iqtisodiy sikl nazariyalari tahlil qilinib, fiskal va pul kredit siyosatining antisiklik mexanizmlari baholandi. Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Fondi va O‘zbekiston rasmiy statistik ma’lumotlari asosida empirik tahlil amalga oshirildi. Fiskal va pul kredit siyosatlarini muvofiqlashtirish, o‘z vaqtida antisiklik choralar qo‘llash va institutsional tuzilmalarni mustahkamlash orqali hukumat iqtisodiy siklni samarali boshqarishi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashi mumkin.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy sikl, hukumat siyosati, fiskal siyosat, pul kredit siyosati, antisiklik siyosat, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘shish.

Kirish

Zamonaviy iqtisodiyotning muhim xususiyatlaridan biri uning siklik tabiatidir. Iqtisodiy o‘shish va tanazzul davrlari bir birini almashtiradi, bu esa davlat iqtisodiyotining barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy sikllar bu milliy iqtisodiyotda yuzaga keladigan davriy tebranishlar bo‘lib, ular ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, narxlar va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘zini namoyon etadi.



Iqtisodiy sikl nazariyasi XVIII asrdan boshlab iqtisodchilar e'tiborini o'ziga tortgan bo'lsa da, uning amaliy ahamiyati XX asrda, ayniqsa 1929-1933 yillardagi Buyuk Depressiyadan keyin yanada oshdi. Shu davrdan boshlab hukumatning iqtisodiy siklni boshqarishdagi o'rni va vazifalari dolzarb masalaga aylandi. J.M.Keyns va uning izdoshlari davlat aralashuvining zarurligini asoslab berishdi, klassik va neoklassik iqtisodchilar esa bozor mexanizmlarining o'z-o'zidan tartibga soluvchi xususiyatlarini ta'kidladilar.

Bugungi kunda globallashuv sharoitida iqtisodiy sikllarning xarakteristikalarini o'zgarmoqda. Bir mamlakatdagi iqtisodiy inqiroz dunyo bo'ylab tarqalish xususiyatiga ega, 2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozi bunga yorqin misol bo'la oladi. Shu munosabat bilan hukumat siyosatining samaradorligi, uning antisikl choralarining maqsadga muvofiqligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida turli xil iqtisodiy sikllarni boshdan kechirdi. Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish, inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hukumat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Bu esa iqtisodiy siklning tabiati va unga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish zaruratini tug'diradi. Ishining dolzarbligi hukumatning iqtisodiy sikllarga ta'sir etish mexanizmlari, fiskal va pul kredit siyosatining antisikl xususiyatlari hamda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun optimal davlat aralashuvi darajasini aniqlash bilan bog'liqdir.

Adabiyot sharhi

Iqtisodiy sikl va davlat siyosati masalalari jahon iqtisodiy adabiyotida keng o'rganilgan bo'lib, turli maktablar vakillari tomonidan har xil yondashuvlar ishlab chiqilgan. Klassik iqtisodiy maktab vakillari A.Smith, D.Rikardo va J.B.Sey iqtisodiyotning o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatiga ishonganlar. Ularning fikricha, "bozor mexanizmlari muvozanatni ta'minlashga qodir va hukumat aralashuvi



minimal bo'lishi kerak"¹. J.B.Seyning bozor qonuniga ko'ra, taklif o'z talabini yaratadi va umumiy ishlab chiqarish hajmining inqirozi yuzaga kelishi mumkin emas. Neoklassik nazariyachilar, jumladan R.Lucas va T.Sargent ratsional kutishlar nazariyasini ishlab chiqdilar va ularning ta'kidlashicha, iqtisodiy sub'ektlar kutilgan siyosatga moslashadi, bu esa hukumat aralashuvining samaradorligini pasaytiradi.

J.M.Keyns o'zining "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" asarida klassik qarashlarni tanqid qildi va davlat aralashuvining zarurligini asoslab berdi. Keyns ta'kidlashicha, samarali talab etishmasligi tufayli iqtisodiyot uzoq muddat muvozanatsiz holatda qolishi mumkin va shu sababli hukumat fiskal siyosat orqali yalpi talabni tartibga solishi kerak. Keynsning izdoshlari P.Samuelson, J.Hicks va A.Hansen multiplikator va akselerator nazariyalarini rivojlantirib, iqtisodiy siklning matematik modellarini yaratdilar. J.Hicks o'zining IS-LM modelida pul kredit va fiskal siyosatlarning o'zaro ta'sirini tahlil qildi va iqtisodiy muvozanatning shakllanish mexanizmlarini ko'rsatdi.

M.Friedman va A.Schwartz "Amerika Qo'shma Shtatlarining pul tarixi" asarida pul massasi o'zgarishining iqtisodiy siklga ta'sirini tarixiy ma'lumotlar asosida ko'rsatdilar. Monetaristlar fikricha, iqtisodiy sikllarning asosiy sababi pul massasining beqaror o'zgarishi hisoblanadi va ular barqaror pul siyosati yuritishni tavsiya etadilar. Friedman aktivistik fiskal siyosatga qarshi chiqib, uzun muddatli va barqaror pul massasi o'sish sur'atini ta'minlashni yechim sifatida taklif etdi.

F.Kydland va E.Prescott haqiqiy iqtisodiy sikl nazariyasini ishlab chiqdilar va ularning fikricha, iqtisodiy tebranishlarning asosiy manbai texnologik shoklar va ishlab chiqarish samaradorligidagi o'zgarishlardir. Bu yondashuv nominal omillar emas, balki real omillarning ahamiyatini ta'kidlaydi va iqtisodiy sikllarni tabiiy hodisa sifatida ko'rib chiqadi. Ular davlat aralashuvining zarurligini shubha ostiga qo'ydilar va bozor iqtisodiyotining optimal moslashish mexanizmlariga e'tibor qaratdilar.

¹ Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. - London, 1776.



Rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida R.Hausmann, L.Pritchett va D.Rodrik o'sish tezlanishlari va inqirozlar masalalarini o'rgangan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, "rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti yuqori tebranuvchanga ega va tashqi shoklarga nisbatan zaifroqdir"². Shu munosabat bilan hukumat siyosatining antisikl xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha S.Gulyamov, A.Vahobov, O.Otamurodov va boshqa mahalliy olimlar mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida yuzaga kelgan iqtisodiy o'zgarishlarni tahlil qildilar. Ularning ishlarida "makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish masalalari ko'rib chiqilgan"³.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy sikl va hukumat siyosatining o'rni masalasi iqtisodiy nazariyada turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Klassik va neoklassik maktablar bozorning o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatiga ishonib, davlat aralashuvini minimallashtirish zaruratini ta'kidlasalar, keynscha maktab iqtisodiyotda bozor nuqsonlari mavjudligini va hukumat aralashuvi zarurligini asoslaydi. Monetaristlar pul siyosatining barqarorligiga e'tibor qaratib, fiskal siyosatning samaradorligiga shubha bilan qaraydilar. Haqiqiy iqtisodiy sikl nazariyasi esa iqtisodiy tebranishlarni tabiiy hodisa sifatida talqin qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti tashqi shoklarga zaifroq va moliyaviy bozorlari kam rivojlangan bo'lganligi sababli iqtisodiy sikllar keskinroq namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan hukumat siyosatining antisikl xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonidagi muammolarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa-da, iqtisodiy siklning tabiati va hukumat siyosatining antisikl mexanizmlari to'liq o'rganilmagan. Bu esa mazkur mavzu bo'yicha chuqurroq tadqiqotlar olib borishning dolzarbligini ko'rsatadi.

² Hausmann R., Pritchett L., Rodrik D. Growth Accelerations // Journal of Economic Growth. - 2005. - Vol. 10(4).

³ Otamurodov O. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish: muammolar va yechimlar. - T.: Fan, 2019.



Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi hukumat siyosatining iqtisodiy siklga ta'sirini O'zbekiston misolida tahlil qilish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat aralashuvining samaradorligini baholashdan iborat.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi o'rtacha daromadli mamlakatlar guruhiga kiruvchi davlat bo'lib, mintaqadagi eng ko'p aholiga ega 37 milliondan ortiq kishi (2024-yil ma'lumotlari bo'yicha). Dunyo bo'yicha ikki qo'sh quruqlikka o'ralgan mamlakatlardan biri sifatida O'zbekiston Markaziy Osiyoning barcha to'rt davlati Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston va Turkmaniston hamda Afg'oniston bilan chegaradosh yagona davlatdir. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng diversifikatsiyalangan iqtisodiyotlardan biriga ega.

Hukumat 2017-yildan boshlab iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiyl sektorini rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu islohotlar natijasida mamlakat yiliga o'rtacha 5,3% YaIM o'sishiga erishdi va dunyodagi eng yaxshi islohotchilardan biriga aylandi. Davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari fiskal va pul kredit siyosatini takomillashtirish, iqtisodiy sikllarni tartibga solish va tashqi shoklarga chidamlilikni oshirishdan iborat.

2025-yil birinchi yarim yillikda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 7,2% ga o'sdi, bu hukumatning ekspansion fiskal siyosati va stimullashtiruvchi choralari samaradorligini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish asosan kuchli xususiyl iste'mol (9,5% o'sish) va sof eksport hisobiga ta'minlandi, bu esa ichki talabni qo'llab quvvatlash bo'yicha davlat dasturlarining ijobiy natijalarini aks ettiradi.

Hukumat tomonidan amalga oshirilgan ish haqi oshirish siyosati va pul o'tkazmalarini rag'batlantirish choralari haqiqiy uy xo'jaliklari iste'molining sezilarli o'sishiga olib keldi. Investitsiyalar 5,5% ga ko'paydi, bu esa davlat



tomonidan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha olib borilgan ishlarning samaradorligini tasdiqlaydi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosan qishloq xo'jaligi, transport, qurilish va qayta tiklanadigan energetika sohalariga yo'naltirildi.

Eksportni qo'llab quvvatlash bo'yicha hukumat siyosati yaqqol natijalar berdi: eksport 2025-yilning birinchi yarim yilligida (AQSh dollari hisobida) 29,1% ga kengaydi. Bu asosan oltin, uran, meva-sabzavot va xizmatlar eksportining ortishi bilan bog'liq. Import 7% ga oshdi, bu esa ichki iste'molning kuchayganligini va ishlab chiqarish uchun zarur xom ashyo va uskunalar talabining ortganligini ko'rsatadi.

Joriy hisob profitsiti YaIMning 6% ni tashkil etdi, bu bir yil oldingi taqchillikdan tub o'zgarishni anglatadi. Ushbu natija pul o'tkazmalarining barqaror hajmi (YaIMning 11,2%) va Markaziy bankning pul kredit siyosati samaradorligi bilan ta'minlandi. O'zbek so'mi 2025-yil yanvar-avgust oylarida AQSh dollariga nisbatan 3,5% ga qimmatlashdi, bu valyuta siyosatining muvaffaqiyatli olib borilganligini va eksport daromadlarining ortganligini ko'rsatadi.

Xalqaro zaxiralar 2025-yil iyul oyining oxiriga kelib 48,7 milliard AQSh dollariga yetdi, bu 10 oylik import hajmiga teng va tashqi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi.

1-Jadval:

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar

Tarmoq	Hajmi (mlrd so'm)	Ulushi (%)	O'sish (oldingi yilga nisbatan)
Ishlab chiqarish	204 613,40	44,2	+8,1%
Qishloq xo'jaligi	112 548,80	24,3	+6,5%
Xizmatlar	89 119,70	19,3	+7,8%
Qurilish	56 998,20	12,2	+9,2%
Jami YaIM	463 280,10	100,0	+7,2%



Manba: “Ushbu ma’umotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Huzuridagi Statistika Bosh Boshqarmasining rasmiy sayti asosida tuzilgan.⁴

Ishlab chiqarish sektori YaIMning 44,2% ulushini tashkil etib, 204,6 trillion so‘m hajmga erishdi va 8,1% o‘shishni qayd etdi. Bu davlat tomonidan amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatining samaradorligini ko‘rsatadi. Hukumat import o‘rnini bosish strategiyasi, texnologik modernizatsiya dasturlari va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab quvvatlash choralari ushbu natijalarni ta’minladi. Ishlab chiqarish sohasining bunday yuqori ulushi va o‘shish sur’ati mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlaydi va iqtisodiy sikldagi tebranishlarni kamaytiradi.

Qishloq xo‘jaligi 24,3% ulush bilan ikkinchi o‘rinda turadi va 6,5% o‘shish sur’atini ko‘rsatdi. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan suv resurslarini samarali boshqarish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini qo‘llab quvvatlash va fermerlarni moliyaviy jihatdan rag‘batlantirish dasturlari bu soha barqaror rivojlanishini ta’minladi. Qishloq xo‘jaligining strategik ahamiyatini hisobga olib, davlat ushbu sohani iqtisodiy siklning salbiy ta’siridan himoya qilish uchun maqsadli choralar ko‘rmoqda.

Xizmatlar sektori 19,3% ulush va 7,8% o‘shish sur’atini qayd etdi. Hukumat raqamlashtirish, moliyaviy xizmatlarni liberallashtirish, turizmni rivojlantirish va transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirmoqda. Xizmatlar sohasining nisbatan past ulushi kelajakda ushbu sektorni rivojlantirish orqali iqtisodiy tuzilmani takomillashtirish va iqtisodiy sikllarni yumshatish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Qurilish sektori 12,2% ulush bilan 9,2% eng yuqori o‘shish sur’atini ko‘rsatdi. Bu davlat tomonidan infratuzilma loyihalariga katta hajmdagi investitsiyalar yo‘naltirilganligi, uy-joy qurilishini rag‘batlantirish dasturlari va TXI ni jalb qilish choralarning natijasisidir. Qurilish sohasining jadal rivojlanishi iqtisodiy siklning

⁴ <https://www.stat.uz>



kengayish fazasini mustahkamlaydi va multiplier effekti orqali boshqa sohalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston hukumati 2025-yilda iqtisodiy siklni samarali boshqarish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha kompleks siyosatni amalga oshirmoqda. Fiskal, pul kredit, valyuta va strukturaviy siyosatlarning muvofiqlashtirish iqtisodiy o'sishni qo'llab quvvatlash va tashqi shoklarga chidamlilikni oshirishga imkon bermoqda. Biroq, global iqtisodiy noaniqlik sharoitida antisiklik siyosatni kuchaytirish, fiskal bufferlarni to'plash va iqtisodiyotning diversifikatsiyasini yanada chuqurlashtirish ustuvor vazifalar bo'lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiy sikl jahon iqtisodiy fikrlarida uzoq vaqtdan beri muhokama qilinib kelinmoqda va bu borada turli maktablar o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqqan. Klassik va neoklassik iqtisodchilar bozor mexanizmlarining o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatiga ishonib, davlat aralashuvini minimal darajada saqlash zaruratini ta'kidlasalar, keynscha va yangi keynscha maktablar samarali talab etishmasligi, narxlar va ish haqi qotibligi kabi bozor nuqsonlari mavjudligini asoslab, hukumat aralashuvi orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkinligini ko'rsatdilar. Monetarist maktab vakillarining fikricha, iqtisodiy sikllarning asosiy sababi pul massasining beqaror o'zgarishi bo'lib, barqaror pul siyosati yuritish orqali iqtisodiy tebranishlarni kamaytirish mumkin. Haqiqiy iqtisodiy sikl nazariyasi esa iqtisodiy tebranishlarni texnologik shoklar va ishlab chiqarish samaradorligidagi o'zgarishlar natijasi sifatida talqin qilib, ularni tabiiy hodisa deb baholaydi.

Empirik ma'lumotlar tahlili hukumat siyosatining iqtisodiy siklga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Fiskal siyosat orqali davlat xarajatlarini o'zgartirish, soliq yukini tartibga solish va ijtimoiy transfer to'lovlarini moslashtirilishi yalpi talabga bevosita ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiy faollik darajasini o'zgartiradi. Kengayish fazasida ekspansion fiskal siyosat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirsa,



tanazzul fazasida hukumat xarajatlarini qisqartirish va soliqlarni oshirish iqtisodiy inqirozni chuqurlashtirishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy iqtisodiy nazariya antisiklik fiskal siyosatni tavsiya etadi, ya'ni iqtisodiy pasayish davrida davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni kamaytirish, o'sish davrida esa aksincha choralarni qo'llashni taklif qiladi.

Pul kredit siyosati ham iqtisodiy siklni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Markaziy banklar foiz stavkalarini o'zgartirish, ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish va majburiy zaxiralar normativini tartibga solish orqali iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatadilar. Ekspansion pul kredit siyosati, ya'ni foiz stavkalarini pasaytirish va pul massasini ko'paytirish investitsiyalar va iste'molni rag'batlantirib, iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. Aksincha, restriksion pul kredit siyosati orqali inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiyotni haddan tashqari qizishdan saqlash mumkin. Biroq, pul kredit siyosatining ta'siri fiskal siyosatga nisbatan sekinroq namoyon bo'ladi va uning samaradorligi moliyaviy tizimning rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Hukumat siyosatining samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. Birinchidan, siyosatning o'z vaqtida amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy siklni aniqlash va prognoz qilishda qiyinchiliklar tufayli hukumat choralari ko'pincha kechikib amalga oshiriladi, bu esa ularning samaradorligini pasaytiradi. Ikkinchidan, fiskal va pul kredit siyosatlarining muvofiqlashtirish zarur. Agar fiskal va pul kredit organlari qarama qarshi yo'nalishda harakat qilsalar, iqtisodiy siyosatning umumiy samaradorligi keskin kamayadi. Uchinchidan, hukumat siyosatiga ishonch va uning kredibiliti muhim rol o'ynaydi. Agar iqtisodiy sub'ektlar davlat majburiyatlariga ishonmasalar, siyosatning kutilgan ta'siri yuzaga kelmaydi. To'rtinchidan, institutsional tuzilmalarning sifati va davlat apparatining samaradorligi siyosat natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy sharoitda globallashtirish va iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligi ortib borishi natijasida milliy hukumatlarning iqtisodiy siklni boshqarish imkoniyatlari cheklanmoqda. Bir mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy shok tezda



boshqa davlatlarga tarqaladi, bu esa koordinatsiyalashgan xalqaro iqtisodiy siyosatning zarurligini tug'diradi. Shu bilan birga, ochiq iqtisodiyotlarda fiskal va pul kredit siyosatining samaradorligi kapital harakatchanligi, valyuta kursi rejimi va tashqi savdo ochiqlik darajasiga bog'liq bo'lib qoladi.

COVID-19 pandemiyasi va uning iqtisodiy oqibatlari hukumat siyosatining ahamiyatini yanada oshirdi. Dunyo bo'ylab ko'plab davlatlar keng ko'lamli fiskal stimul dasturlarini amalga oshirdilar va Markaziy banklar noan'anaviy pul kredit choralarga murojaat qildilar. Ushbu tajriba shuni ko'rsatdiki, og'ir inqiroz sharoitida hukumat aralashuvi muqarrar va zarurdir. Biroq, shu bilan birga, davlat qarzining keskin oshishi va pul massasining kengayishi uzoq muddatli oqibatlarga ega bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy sikl va hukumat siyosati masalasi bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda. Zamonaviy iqtisodchilar iqtisodiy modellarni takomillashtirish, yangi empirik ma'lumotlarni tahlil qilish va siyosat tavsiyalarini ishlab chiqish ustida ishlamoqdalar. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi va iqlim o'zgarishlari kabi yangi omillar iqtisodiy siklning tabiati va hukumat siyosati samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi muhokama qilinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, hukumat siyosati iqtisodiy siklni yumshatish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Fiskal va pul kredit siyosatlarining to'g'ri muvofiqlashtirish, o'z vaqtida va maqsadli choralrni amalga oshirish hamda institutsional tuzilmalarni mustahkamlash orqali hukumat iqtisodiy o'sishni qo'llab quvvatlashi va inqiroz oqibatlarini yumshatishi mumkin. Biroq, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy sharoitlari, rivojlanish darajasi va institutsional imkoniyatlariga mos ravishda optimal siyosatni ishlab chiqishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. - London: W. Strahan and T. Cadell, 1776. - 560 p.



2. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. - London: John Murray, 1817. - 333 p.
3. Say J.B. A Treatise on Political Economy. - Philadelphia: Grigg & Elliot, 1834. - 488 p.
4. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. - London: Macmillan, 1936. - 403 p.
5. Online: <https://www.hetwebsite.net/het/texts/keynes/gt/gtcont.htm>
6. Samuelson P.A. Foundations of Economic Analysis. - Cambridge: Harvard University Press, 1947. - 447 p.
7. Gulyamov S.S., Vahobov A.V. Makroiqtisodiyot nazariyasi va amaliyoti. - T.: Iqtisodiyot, 2018. - 456 b.
8. Otamurodov O. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish: muammolar va yechimlar. - T.: Fan, 2019. - 328 b.
9. Xonkeldiyev A. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish nazariyasi. - T.: TDIU, 2020. - 412 b.
10. Ismoilov A., Abdug'aniyev A. Pul-kredit siyosati va inflyatsiya. - T.: TDIU, 2021. - 296 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: Statistik to'plam. - Toshkent, 2024. <https://stat.uz>